# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-iyul)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 297,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 138,7 mln. AQSh dollariga yoki 31,8 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH VA BOSHQA DAVLATLARNING ULUSHI (yanvar-iyul, % da)**

TSA da eksport hajmi 199,5 mln. AQSh dollariga (22,9 % ga kamaydi) va import hajmi 98,2 mln. AQSh dollariga (44,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - 101,3 mln. AQSh dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




Shu bilan birga ta‘kidlab o‘tish kerakki, 2020- yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, iyun oyiga nisbatan 4,5 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 26,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 14,5 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa iyun oyiga nisbatan 5,2 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

**TOVAR VA XIZMATLAR-NING OYLIK EKSPORT-IMPORT KO‘RSATKICH-LARI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**




2020- yil yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko‘rinish olgan:

**QORAQALPO-G‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

| Davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 81,4 | 59,2 | 22,2 | 27,4 |
| Rossiya Federatsiyasi | 67,6 | 46,0 | 21,6 | 22,7 |
| Turkiya | 37,0 | 36,0 | 1,0 | 12,4 |
| Qozog‘iston | 32,2 | 23,4 | 8,8 | 10,8 |
| Koreya Respublikasi | 21,6 | 2,6 | 19,0 | 7,3 |
| Latviya | 14,5 | 12,3 | 2,2 | 4,9 |
| Vyetnam | 6,1 | - | 6,1 | 2,0 |
| Ukraina | 4,1 | 3,5 | 0,6 | 1,4 |
| Tojikiston | 3,4 | 3,4 | - | 1,1 |
| Bangladesh | 3,4 | 3,4 | - | 1,1 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 2,6 | 1,4 | 1,2 | 0,9 |
| Afg‘oniston | 2,1 | 2,1 | - | 0,7 |
| Ruminiya | 1,6 | - | 1,6 | 0,5 |

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 55 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (27,4 %), Rossiya Federatsiyasida (22,7 %), Turkiyada (12,4 %), Qozog`istonda (10,8 %), Koreya Respublikasida (7,3 %), Latviyada (4,9 %) va Vyetnamda (2,0 %) qayd etilgan.

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **103,5** | **115,1** | **81,4** |
| Eksport | 78,2 | 66,4 | 59,2 |
| Import | 25,3 | 48,7 | 22,2 |
| Saldo | 52,9 | 17,7 | 37,0 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **111,5** | **107,3** | **67,6** |
| Eksport | 80,1 | 85,2 | 46,0 |
| Import | 31,4 | 22,0 | 21,6 |
| Saldo | 48,7 | 63,2 | 24,4 |
| **Turkiya** | **69,9** | **51,7** | **37,0** |
| Eksport | 64,5 | 35,7 | 36,0 |
| Import | 5,5 | 16,0 | 1,0 |
| Saldo | 59,0 | 19,7 | 35,0 |
| **Qozog`iston** | **41,5** | **51,3** | **32,2** |
| Eksport | 34,0 | 35,9 | 23,4 |
| Import | 7,4 | 15,4 | 8,8 |
| Saldo | 26,6 | 20,5 | 14,6 |
| **Koreya Respublikasi** | **18,2** | **37,1** | **21,6** |
| Eksport | 2,7 | 11,3 | 2,6 |
| Import | 15,5 | 25,8 | 19,0 |
| Saldo | -12,8 | -14,5 | -16,4 |
| **Latviya** | **18,6** | **14,5** | **14,5** |
| Eksport | 16,2 | 12,0 | 12,3 |
| Import | 2,4 | 2,5 | 2,2 |

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| Saldo | 13,8 | 9,5 | 10,1 |
| **Vyetnam** | **3,8** | **7,9** | **6,1** |
| Eksport | 1,0 | - | - |
| Import | 2,9 | 7,9 | 6,1 |
| Saldo | -1,9 | -7,9 | -6,1 |
| **Ukraina** | **4,6** | **4,4** | **4,1** |
| Eksport | 3,2 | 2,1 | 3,5 |
| Import | 1,5 | 2,3 | 0,6 |
| Saldo | 1,7 | -0,2 | 2,9 |
| **Tojikiston** | **1,4** | **1,5** | **3,4** |
| Eksport | 1,2 | 1,5 | 3,4 |
| Import | 0,2 | - | - |
| Saldo | 1,0 | 1,5 | 3,4 |
| **Bangladesh** | **0,6** | **-** | **3,4** |
| Eksport | 0,6 | - | 3,4 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,6 | - | 3,4 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **2,9** | **2,5** | **2,6** |
| Eksport | 2,9 | 2,0 | 1,4 |
| Import | - | 0,5 | 1,2 |
| Saldo | 2,9 | 1,5 | 0,2 |
| **Afg‘oniston** | **1,0** | **0,6** | **2,1** |
| Eksport | 1,0 | 0,6 | 2,1 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 1,0 | 0,6 | 2,1 |
| **Ruminiya** | **1,5** | **1,3** | **1,6** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 1,5 | 1,3 | 1,6 |
| Saldo | -1,5 | -1,3 | -1,6 |

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-iyul)

2020- yil yanvar-iyul oylarida eksport hajmi 199,5 mln. AQSh dollariga teng bo‘ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (70,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (11,6 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, ming AQSh dollari)

**2019- yil** **2020- yil**




## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI ULUSHI (2020- yil yanvar-iyul, % da)



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-iyul)**

| | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **199,5** | **78,5** | **121,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Paxta-tolasi | 6,2 | - | 6,2 | 3,1 | - | 5,1 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 23,1 | 6,5 | 16,6 | 11,6 | 8,2 | 13,7 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 141,2 | 65,1 | 76,1 | 70,8 | 82,9 | 62,9 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 0,6 | 0,2 | 0,4 | 0,3 | 0,2 | 0,3 |
| Qora va rangli metallar | - | - | - | - | - | - |
| Mashina va asbob-uskunalar | 1,7 | - | 1,7 | 0,9 | 0,1 | 1,4 |
| Xizmatlar | 1,2 | 0,8 | 0,4 | 0,6 | 1,0 | 0,3 |
| Boshqalar | 25,5 | 5,9 | 19,6 | 12,7 | 7,6 | 16,3 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyo mahsulotlari va buyumlari hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga to`g`ri kelmoqda.

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o‘zgarish sur’atlari bo‘yicha quyida keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o‘sish sur’atlari may oyida kuzatilgan.

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`ZGARISH SUR`ATLARI (2020- yil yanvar-iyul, % da)**




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning iyul oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 13,6 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 89,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (53,8 %), moliyaviy xizmatlar (25,8 %) va safarlar (19,6 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, % da)**



Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning iyul oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, iyun oyiga nisbatan 4,4 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 26,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

**TOVARLAR VA XIZMATLAR EKSPORTI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**




**RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (yanvar-iyul, % da)**



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI (yanvar-iyul)**

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 70,8 % ini tashkil qiladi. Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

| Davlat nomi | Mln. AQSh doll. | | Ulushi, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Xitoy | 66,4 | 59,2 | 25,7 | 29,7 | 2 | 1 |
| Rossiya | 85,2 | 46,0 | 32,9 | 23,1 | 1 | 2 |
| Turkiya | 35,7 | 36,0 | 13,8 | 18,0 | 4 | 3 |
| Qozog‘iston | 35,9 | 23,3 | 13,9 | 11,7 | 3 | 4 |
| Latviya | 12,0 | 12,3 | 4,6 | 6,2 | 5 | 5 |
| Ukraina | 2,1 | 3,5 | 0,8 | 1,8 | 7 | 6 |
| Tojikiston | 1,5 | 3,4 | 0,6 | 1,7 | 8 | 7 |
| Bangladesh | - | 3,4 | - | 1,7 | 11 | 8 |
| Koreya Respublikasi | 11,3 | 2,6 | 4,4 | 1,3 | 6 | 9 |
| Afg‘oniston | 0,6 | 2,1 | 0,2 | 1,1 | 10 | 10 |
| Iroq | 1,0 | 1,5 | 0,4 | 0,7 | 9 | 11 |

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-iyul)**

2020- yilning yanvar-iyul oylarida jami 25 831,4 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 5 950,8 ming AQSh dollariga eksport qilindi (2019- yilning mos davriga nisbatan 25,2 % ga kamaygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida 23 134,1 tonna sabzavotlar 4 377,8 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-iyul)

Shuningdek, 1 735,1 tonna meva va rezavorlar 1 148,5 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 294,8 tonnaga kamaygan.




Shuni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida yeryong'oq eksporti hajmi 15,1 ming AQSh dollariga yetdi (2019- yilning mos davriga nisbatan 4,0 barobarga ko‘paygan).

## RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILGAN MEVA VA SABZAVOT MAHSULOTLARINING ASOSIY BOZORLARI EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-iyul)

| Davlat nomi | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | tonna | Ming AQSh doll. | ulushi, % da | tonna | Ming AQSh doll. | ulushi, % da |
| Qozog‘iston | 15 196,4 | 5 855,3 | 73,6 | 24 073,1 | 5 072,7 | 85,2 |
| Rossiya | 3 958,6 | 1 417,7 | 17,8 | 1 541,7 | 675,3 | 11,3 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 69,1 | 109,5 | 1,4 | 62,2 | 78,3 | 1,3 |
| Xitoy | 25,5 | 24,7 | 0,3 | 51,0 | 53,0 | 0,9 |
| Iroq | - | - | - | 47,5 | 33,3 | 0,6 |
| BAA | - | - | - | 23,0 | 23,0 | 0,4 |
| Turkiya | 502,6 | 66,0 | 0,8 | 10,0 | 12,0 | 0,2 |
| Ukraina | 21,5 | 101,1 | 1,3 | 22,9 | 3,2 | 0,1 |

## MEVA VA SABZAVOT MAHSULOTLARINING TARKIBI (yanvar-iyul, % da)



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2020- yil yanvar-iyul)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 98,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 44,7 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (32,8 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (18,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,9 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, ming AQSh dollari)**




**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI ULUSHI (2020- yil yanvar-iyul, % da)**



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-iyul)**

| | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Import** | **98,2** | **33,7** | **64,5** | **100** | **100** | **100** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 13,7 | 12,7 | 1,0 | 13,9 | 37,6 | 1,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 18,6 | 1,5 | 17,1 | 18,9 | 4,4 | 26,5 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 5,7 | 2,6 | 3,1 | 5,8 | 7,7 | 4,8 |
| Qora va rangli metallar | 0,9 | 0,1 | 0,9 | 1,0 | 0,2 | 1,4 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 32,2 | 4,2 | 28,1 | 32,8 | 12,3 | 43,5 |
| Xizmatlar | 5,7 | 0,3 | 5,4 | 5,8 | 0,9 | 8,4 |
| Boshqalar | 21,4 | 12,5 | 8,9 | 21,8 | 36,9 | 13,8 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o‘zgarish sur’atlari bo‘yicha quyida keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida eng yuqori o‘sish sur’atlari iyun oyida kuzatilgan.

**TOVARLAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O‘ZGARISH SUR’ATLARI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, % da)**



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘zgarish sur’atlarining tahliliga asosan, 2020- yilning iyul oyida import qilingan tovar va xizmatlar iyun oyiga nisbatan 145,1 % ga kamaygan.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIGA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRILGAN IMPORT HAJMI (yanvar-iyul)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | Ulushi, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 48,7 | 22,3 | 27,4 | 22,7 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 22,0 | 21,6 | 12,4 | 22,0 | 3 | 2 |
| Koreya Respublikasi | 25,8 | 19,0 | 14,5 | 19,4 | 2 | 3 |
| Qozog`iston | 15,4 | 8,8 | 8,7 | 9,0 | 4 | 4 |
| Vyetnam | 7,9 | 6,1 | 4,5 | 6,2 | 5 | 5 |
| Latviya | 2,5 | 2,2 | 1,4 | 2,3 | 8 | 6 |
| Ruminiya | 1,3 | 1,6 | 0,7 | 1,6 | 10 | 7 |
| Eron | 4,1 | 1,3 | 2,3 | 1,3 | 7 | 8 |
| Qirg’iz Respublikasi | 0,5 | 1,2 | 0,3 | 1,2 | 11 | 9 |
| Polsha | 2,0 | 1,1 | 1,1 | 1,1 | 9 | 10 |
| Buyuk Britaniya | 7,4 | 1,1 | 4,2 | 1,1 | 6 | 11 |
| Avstriya | 0,1 | 1,0 | - | 1,0 | 12 | 12 |

## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, % da)

2019- yil

2020- yil




Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari
Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari
Jismoniy shaxslarning madaniyat va hordiq sohasidagi xizmatlari
Moliyaviy xizmatlar
Transport xizmatlari
Boshqalar

Xizmatlar importi hajmi 5,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,8 % ini tashkil etdi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 75,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (82,6 %) va moliyaviy xizmatlar (9,9 %) dan iborat bo'ldi.

**TOVARLAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)**




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, Qoraqalpog'iston Respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar iyul oyida, iyun oyiga nisbatan 5,2 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 4,8 mln. AQSh dollarga, xizmatlar esa 0,4 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (yanvar-iyul, % da)**



2020- yilning yanvar-iyul oylarida respublikaga 40 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston, Vyetnam va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 80,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,6 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko‘rish mumkin.

**MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2020- yil yanvar-iyul)**

| DAVLAT NOMI | XITOY | VYETNAM | ROSSIYA | KOREYA RESPUBLIKASI | SHVEYT-SARIYA |
|---|---|---|---|---|---|
| Ming AQSH doll. | 16 079,8 | 5 915,1 | 3 574,7 | 1 126,4 | 772,4 |
| 2019- yilning shu davriga nisbatan, % da | 35,1 | 75,6 | 60,3 | 22,8 | 11,9 b. |
| Ulushi, % da | 49,9 | 18,4 | 11,1 | 3,5 | 2,4 |

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2020- yil yanvar-iyul)**

| DAVLAT NOMI | QOZOG‘ISTON | ROSSIYA | POLSHA | BELARUS |
|---|---|---|---|---|
| Ming AQSH doll. | 8 484,8 | 4 039,8 | 788,0 | 173,9 |
| 2019- yilning shu davriga nisbatan, % da | 69,8 | 2,1 b. | - | - |
| Ulushi, % da | 61,9 | 29,5 | 5,8 | 1,3 |

## KIMYO MAHSULOTLARI VA BUYUMLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2020- yil yanvar-iyul)

| DAVLAT NOMI | KOREYA RESPUBLIKASI | XITOY | ROSSIYA | QATAR | BELGIYA |
|---|---|---|---|---|---|
| Ming AQSH doll. | 9 399,7 | 3 464,9 | 1 105,5 | 940,6 | 817,2 |
| 2019- yilning shu davriga nisbatan, % da | 121,0 | 44,6 | 14,2 | 12,1 | 10,5 |
| Ulushi, % da | 50,5 | 18,6 | 5,9 | 5,1 | 4,4 |

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi**
**Tel.: 61 224-92-06**